

2022-yilda O'zbekistonda ijtimoiy sohaga ajratilgan mablag'ning salkam 45 foizi ta'lim sohasiga yo'naltirilmoqda. Shundan:

Maktabgacha ta'limiga: 8,7 trln. so'm

Xalq ta'limiga: 30,3 trln. so'm

O'rta maxsus va oliy ta'limiga: 7,5 trln. so'm

YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

57 (16510)
2022-yil, 20-avgust
shanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Yoshlar siyosati
2-bet

Mehnatsiz iqtidorning
umri qisqa

Yoshlar yetakchisi
4-bet

Jinoyatchilikni yo'qotish
– bosh vazifam

Sening tengdoshing
6-7-betlar

IELTSDan 7 ball
olgan 11 yoshli qiz



“REKLAMA TO‘G‘RISIDA”GI QONUN

IJROSI TA'MINLANADIMI YOKI NAZORATSIZ QONUNLARDAN
BO'LIB QOLAVERADIMI?

batafsil
3-betda

MEHNATSIZ IQTIDORNING UMRI QISQA

Farand tug'ilib to'voya yet-gunicha qo'lidan tutib hayotni o'rgatadigan, ezgu yo'llarga yo'naltiradigan, bilim beradigan odam uning ota-onasidir. Bola ularning ko'magi bilan hayotni anglaydi, o'zini taniydi, kamolga yetadi. **Xalqaro turnirlar g'olibi Robiyaxon Sardorovanning otasi Sardor Otaxonov ham shunday otalardan biri.** O'z vaqtida farzandiga munosib sharoit yaratib, uning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlagani uchun bugun mevasini ko'rmoqda. Bu borada Sardor Otaxonovning fikr-mulohazalari bilan qiziqdik.

– Qizim 10 yildan beri shaxmat bilan shug'ullanadi. Aslida xohlagan yo'nalish bo'yicha shug'ullanish kerak emas, balki shu soha bilan yashash kerak, hayotining bir mazmuniga aylantirishi shart. Agar shu soha bilan yashamasang, ochig'ini aytsak,



sen u sohada mavjud emassan. Agar men futbolchi bo'lsam, uyimda ham, ko'chada ham fikr-u xayolim faqat ko'ptokda bo'lishi, mabodo duradgor bo'lsam, ustozimning yonida ham duradgorlik bilan shug'ullanishim, uyga kelganimda ham o'z ustimda ishlashim zarur bo'ladi. Demak, men kim bo'lsam, o'sha narsa hayot tarzimga aylanishi kerak.

Men hamma ota-onalarga aytgan bo'lardimki, farzandingiz qaysi sohaga qiziqsa, unga imkoniyat yaratib bering. Chunki inson o'zi sevgan sohadaгина yuksak cho'qqilarni zabt eta oladi. Bolangizning qiziqishini aniqlashda esa siz tanlagan yo'nalishda katta tajribaga ega mutaxassisning yordami kerak. Xalqimiz ta'biri bilan aytganda: "Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar".

Har bir sohada iqtidor bo'lishi lozim, lekin mehnatsiz iqtidorning ham umri qisqa. Chunki har bir g'alabaning yuzdan bir ulushigina iste'dodga, bir ulushi esa o'madga, qolgan 98 ulushi qilingan sa'y-harakatga bog'liq. Agar mening bir tanishim ma'lum soha bo'yicha mendan ko'ra iste'dodliroq bo'lsa-yu men undan ko'ra ko'proq mehnat qilsam, demak men undan ustunroqman. Xulosa shuki, orzular haqiqatga aylanishi uchun faqat va faqat mehnat kerak.



Sardor SA'DULLAYEV yozib oldi.

177 IMKONIYAT

YUQORI BALLI ABITURIYENTLARGA PREZIDENT GRANTI



Prezidentimizning 2021-yil 6-iyuldagi "Respublika oliy ta'lim muassasalariga talabalikka qabul qilingan iqtidorli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, OTMga kirishda eng yuqori ball to'plagan 200 nafar yoshlar uchun Prezident granti e'lon qilingan. **Unga ko'ra:**

a) Davlat oliy ta'lim muassasalari bakalavriatining kunduzgi ta'lim shakliga kirish imtihonlari natijalariga ko'ra, ta'lim sohalari kesimida, ta'lim olish tildan qat'i nazar, respublika bo'yicha eng yuqori ball to'plagan abituriyentlarning 200 nafari Prezident grantiga da'vogar bo'ladi.

Bunda:

– Prezident granti uchun ajratilgan kvotaning ta'lim sohalari bo'yicha taqsimoti har yili O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi;

– muayyan ta'lim sohasi uchun ajratilgan Prezident granti kvotasi bo'yicha so'nggi o'rindagi abituriyent va u bilan bir xil ball to'plagan barcha fuqarolar Prezident grantiga da'vogar bo'ladi;

b) qonunchilik hujjatlariga muvofiq oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirishda qo'shimcha ball shaklida imtiyoz beriladigan toifadagi abituriyentlarning kirish imtihonlari natijalariga ko'ra to'plagan ballga qo'shib berilgan ballar Prezident grantiga da'vogarlarni aniqlashda hisobga olinmaydi;

d) Prezident grantiga da'vogar bo'lgan abituriyentlar ro'yxati har yili kirish imtihonlari va tanlov to'liq yakunlangandan so'ng O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi;

e) Prezident grantiga da'vogar bo'lgan abituriyentlar davlat granti asosida o'qishga qabul qilinadi;

f) Prezident granti sovrindorlari birinchi kursda barcha fanlarni "a-lo" baholarga o'qigan, ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarida yutuqlarga erishgan mazkur grantga da'vogar talabalar orasidan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Respublika oliy ta'lim kengashi hamda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan o'tkaziladigan tanlov asosida aniqlanadi;

g) o'tkazilgan tanlov natijalariga ko'ra g'olib bo'lgan talabalarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi tayinlanadi va to'lanadi.

MULOQOT HAFTALIGI



Yurtimizda 20-avgust "Tadbirkorlar kuni" sifatida belgilangan. Shu munosabat bilan Toshkent shahrida "Tadbirkorlar bilan muloqot haftaligi" o'tkazilmoqda. Kuni kecha haftalik doirasida "Biznesni moliyalashtirish, kreditlash hamda biznesni boshlash va sug'urtalash, tegishli lizinglar ajratish hamda monopoliyaga qarshi kurashish" mavzusida davra suhbatlari va munozara bo'lib o'tdi.

Panel sessiyalar bir vaqtning o'zida ikkiga bo'lingan holda davom etdi. Sessiyada tijorat banklari vakillari, tadbirkorlar va tegishli tashkilot rahbarlari bevosita studiya va hududlar markazlarida tashkil etilgan onlayn platforma orqali ishtirok etdi.

Tadbirda asosiy urg'u tadbirkorlar va mas'ullar o'rtasidagi savol-javobga qaratildi. Tadbirkor va ishbilarmonlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga tegishli tashkilot mas'ullaridan javoblar oldi. Muammoga duch kelayotgan tadbirkorlar va ishbilarmonlar fikri tinglanib, ularning muammosi shu joyning o'zida hal etildi. Hal etish uchun vaqt talab etiladigan masalalar mas'ullar tomonidan yozib olinib, "yo'l xaritasi"ga kiritildi va tez orada ijobiy javob berishga kelishib olindi.

Ochiq muloqot shaklidagi "Tadbirkorlik haftaligi" davom etmoqda.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,

"Yoshlar ovozi" muxbiri

32 YIL FAQAT BAYRAM QILDIK...(MI?)

YOXUD "REKLAMA TO'G'RISIDA"GI YANGI QONUN HAM IJROSIZ, NAZORATSIZ QONUNLARDAN BO'LIB QOLAVERADIMI?

Shahruza SATTOROVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri



Shu kunlarda jamoatchilik o'rtasida o'zbek tilining obro'si masalasi muhokama etilmoqda. Bunga sabab esa shu yil 6-iyun kuni imzolangan "Reklama to'g'risida"gi yangi qonundur. Qonun sentabr oyining boshida kuchga kiradi. Adliya vazirining davlat tili masalalari bo'yicha maslahatchisi hamda blogger Shahnoza Soatova "Reklama to'g'risida"gi qonun hademay kuchga kiradi – yana tilimiz birinchi o'rinda emas...(mi?)", deb savol qo'ydi.

"Qonun kuchga kirishiga 1 oydan kam vaqt qolganiga qaramay, hamma negadir jim va harakatsiz. Hech bir tadbirkor idorasi, do'koni yoki savdo markazi peshidagi reklama lavhalarini yangilashga harakat ham qilmayapti, mas'ul tashkilotlar, xususan, Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi va sohaga bosh mas'ul Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish departamenti jim. Departamentning ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarida bu haqida biron gap yo'q, televideniye va radioda bu haqida so'z aytilmayapti, tadbirkorlar lavhalarni yangilash to'g'risida xabaroma ham olmaganlar. Xullas, amalda hech kim qonunning 6-moddasini bajarmoqchi emas, shekilli", – deydi u.

Bunga ijtimoiy tarmoq kuzatuvchilari faol ravishda fikr bildirdi. Kimdir bu fikrlarga qo'shilsa, boshqasi muallifni millatchilikda aybladi.

MUHOKAMAGA SABAB BO'LAYOTGAN QONUNDA NIMALAR BELGILANGAN O'ZI?

"Reklama to'g'risida"gi yangi qonunni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi 2021-yil 28-dekabrda qabul qilgan va Oliy Majlis Senati joriy yil 17-martda ma'qullagan. Qonunda reklama qo'llaniladigan tilga, shuningdek, reklama mazmunini davlat tilidan boshqa tillarga tarjima qilishga nisbatan yangi talablar belgilandi. Jumladan, qonunning 6-moddasiga binon, O'zbekiston Respublikasi hududida reklama O'zbekiston Respublikasining davlat tilida tarqatiladi. Ushbu moddada reklama mazmunining tarjimasini quyidagi talablarga rioya etgan holda boshqa tillarda takror berilishi mumkin:

– reklama mazmunining boshqa tillardagi tarjimasini matni uning O'zbekiston Respublikasi davlat tilidagi asosiy ma'nosini buzib ko'rsatmasligi kerak;

– tashqi reklama orqali joylashtiriladigan reklamani boshqa tillardagi tarjimasini matni O'zbekiston Respublikasi davlat tilidagi reklama matnining pastki qismida gorizontal holda joylashtirilishi va umumiy reklama maydonining qirg' foizidan oshmasligi kerak;

– reklamani boshqa tillardagi tarjimasini matni harfining o'lchami

O'zbekiston Respublikasi davlat tilidagi reklama matni harfining o'lchamidan kichik bo'lishi kerak;

– tele va radiokanallarda, shuningdek, bosma nashrlarda tarqatiladigan reklamani boshqa tillardagi tarjimasini har kungi umumiy reklama hajmining yigirma foizidan oshmasligi kerak.

Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarining amal qilishi:

– faqat chet tillarda e'lon qilinadigan bosma nashrlarda va noshirlik mahsulotining boshqa turlarida joylashtiriladigan reklamaga;

– ko'rsatuvni (eshitirishni) chet tillarda amalga oshiruvchi ommaviy axborot vositalarining tele, radio, video, kinoxronikal dasturlarini namoyish etish (eshitirish) jarayonida joylashtiriladigan reklamaga;

– Internet jahon axborot tarmog'idagi materiallarni faqat chet tillarda joylashtiriladigan veb-saytlarning axborot resurslariga joylashtiriladigan reklamaga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Belgilangan tartibda ro'yxatga olingan tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari), bosma usulda terilgan bo'g'inli belgilar (logotiplar) asl qaysi tilda bo'lsa, shu tilda keltirilishi mumkin.

O'ZBEKCHA EMAS...

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga 32 yil bo'ldi. Nazarimda, biz bu kuni 32 marta bayram qildik, xolos. Negaki tilimiz ildizi zamindan uzildi, birmuncha zaiflashib, sun'iylashib qoldi.

Poyintar-soyintar yozishga, televideniye yoki radioefirlarda undan ham beshbattar so'zlashga o'rganib qoldik. Faqat til bayramida o'zbek tilini esladik. Choyxona-yu, sartaroshxona, yangi qurilayotgan binolardan tortib, qishloqdagi bobom davridan qolgan do'kongacha, o'quv markazi, maktab-u bog'chalar, barcha-barchasi ajnabiy nomlar bilan ataldi. "Beauty salon", "Perfect school", "manikyur, pedikyur... Hatto qishloqdagi sutchi xola ham

"qatiq bor" degan yozuvni o'chirib, "Молочный домик" deb yozib qo'ygan.

REKLAMA HAQIDAGI QONUN HAM ISHLAMAYDIGAN QONUNLARDANMI?

O'tgan 32 yilni tahlil qiladigan bo'lsak, parlament tomonidan o'zbek tili bo'yicha ko'plab qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. 2019-yilda o'zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi. Ammo milliy ijtimoiy muhitda tilga, uning taraqqiyotiga befarqlik bilan qarash avj olib boryapti.

Masalan, Germaniyada mas'ul idoralar nemis tilidan boshqa tildagi murojaatlarni ko'rib chiqmaydi. Irlandiyada esa irland va ingliz tili davlat tili sifatida qabul qilingan. Davlat organlarida davlat tillari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinayotganini tekshirish bo'yicha alohida organ mavjud. Agar davlat organi ushbu tashkilotga hujjatlarni taqdim etmasa, ular bilan hamkorlik qilmasa, ushbu organ mansabdor shaxs uchun 2000 yevrogacha jarima yoki 6 oy qamoq jazosi belgilashi mumkin. Bu tekshiruvlar natijasida til to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzilganini aniqlansa, davlat organi mansabdor shaxsi javobgarlikka tortilishi mumkin.

Gruziyada esa "Davlat tili to'g'risida"gi qonunga ko'ra, davlat korxonasi va tashkilotlarida faqat gruzin tilida ish yuritiladi, zarurat tug'lsa, hujjatlar boshqa tillarga tarjima qilinishi mumkin, ammo bu tarjimalar rasmiy hujjat hisoblanmaydi. Qatarda 2019-yilda qabul qilingan yangi qonunga ko'ra, barcha davlat organlari va rasmiy hujjatlarda arab tilidan majburiy foydalaniladi. Qonun talablariga amal qilmaganlik uchun 50 000 qattar riali (14 000 AQSh dollari atrofida) miqdordagi jarima belgilangan.

Bizda-chi? Korxonalar nomlanishiga mas'ul bo'lgan Davlat statistika qo'mitasi, reklama e'lonlari bilan shug'ullanuvchi yuqori tashkilotlar, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish agentligi, Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari kabi faoliyati ona tilimiz bilan bevosita aloqador tashkilotlarning birortasi davlat tili borasida jon kuydirgani, targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borganini ko'rmaganmiz. Qonun bor, ammo unga hech kim amal qilmaydi.

Xo'sh, "Reklama to'g'risida"gi qonun ham ijrosiz, nazoratsiz qonunlardan bo'lib qolaveradimi?



JINOYATCHILIKNI YO‘QOTISH – BOSH VAZIFAM

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati samaralari, yoshlarga yaratilayotgan keng imkoniyatlar mahallalardagi har bir xonadonga kirib borishini ta'minlash yoshlar yetakchilarining zimmasiga yuklatilgan ulkan mas'uliyatli vazifadir.



Amantoy NURJANOV,
To'rtko'l tumanidagi "Markazobod"
mahallasi yoshlar yetakchisi



Faoliyatimning dastlabki kunlarida mahalla yoshlarining oilaviy, ijtimoiy holati va turmush darajasini o'rganish chog'ida Nazarovlar oilasi e'tiborimni tortdi. Bu yosh oilaning yaqin ko'makchilari yo'q, o'zlari kollej o'quvchisi edi. Ular o'qishni tashlab, ishlash niyatida ekan. Yosh oilaning bo'sh vaqtlari va imkoniyatlarini o'rganib, ularni doimiy ish o'rinlariga ishga joylashtirdim. Hozir yosh oila o'qishini ham, ishini ham birdek davom ettirmoqda.

Shu tariqa hududda aholi ishonchiga kirdim, desam adashmayman. Hozirgacha necha o'nlab yoshlarning muammolarini hal etdik. Yoshlarga oid yangiliklar, imtiyozlar haqida targ'ibot o'tkazib, bu imkoniyatlar har bir xonadonga kirib borishi uchun harakatdamam.

Mamlakatimiz tarixida birinchi marotaba mahalladan to respublika bosqichigacha o'tkazilgan "Besh tashabbus olimpiadasi" yoshlar hayotida kutilmagan yangilik bo'ldi. Musobaqalar nafaqat mahallamiz, balki tumanimizda hali kashf etilmagan iste'dod va iqtidor sohiblari juda ko'pligini ko'rsatdi.

Sport nafaqat yoshlarning

bandligini ta'minlashda, balki zararli odatlardan forig' bo'lishda, jinoyat yo'lidan uzoq yurishda ham yaxshi samara beradi. Mening faoliyatimda ham sport katta ko'makchi bo'lyapti.

Endi ish boshlagan kezlarim mahalla yoshlaridan biri jazoni ijro etish muassasasidan qaytdi. Sherzod Abdullayev psixotrop vositalar bilan shug'ullanganligi uchun jazo-ga tortilgan edi. U bu yo'lga bilmay kirib qolganini, qilgan ishidan pushaymonligini bildirdi. Suhbatimiz uning qiziqishlari, kelajak rejalari haqida bo'lardi. Futbolga qiziqishini, imkoni bo'lsa uyining yonidagi o'ziga tegishli bo'lgan binoda kichik bir kafe ochish orzusi borligini aytdi.

Birinchi ishim uni yoshlar orasiga olib kirish bo'ldi. Keyin uning orzusini amalga oshirish uchun imtiyoz asosida 33 million so'm kredit chiqardik. Tez orada kafe ish boshlab, 4 nafar ishsiz yosh ishli bo'ldi. Daromadi ham yaxshi, oyiga o'rta 4-5 million so'm atrofida. Har oyning ikkinchi shanbasida u bilan monitoring ishlari olib boramam.

Sherzod sport bilan ham muntazam shug'ullanadi. Futbol-

da ham yaxshigina mahorat egasi. Joriy yilda o'tkazilgan "Davlat xavfsizlik xizmati raisi" kubogining mini-futbol bo'yicha musobaqasida mahallamiz yoshlari faxrli 2-o'rinni egallashida Sherzod Abdullayevning hissasi katta bo'ldi.

Mahallamiz yoshlarini kuzatar ekanman, ular orasida ikki nafar yoshning jinoyatchilikka moyilligi bor, degan xulosaga keldim. Ikkinchi yarim yillik ish rejamga asosan, tumanimizdagi boshqa yetakchilar bilan birgalikda jinoyatchilikka moyilligi bor yoshlarni Jazoni ijro etish muassasasida o'z jazosini o'tayotgan tengdoshlarining hayot tarzi, qiyin-

chiliklari bilan tanishtirish uchun olib bormoqchimiz Jazoni o'tayotgan yoshlar bilan birgalikda suhbat qilib, bu yo'lga qanday kirib qolganini, pushaymonligini, iztiroblarini birgalikda tinglab, hamsuhbat bo'lish niyatimiz bor. Shu bilan mayda jinoyatlarini sodir qilgan yoshlarimizni kelajakda nima bilan duch kelishi mumkinligi haqida ogohlantirgan bo'lardik.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Yoshlarimiz – Yangi O'zbekiston yoshlari, xalqimizning oltin fondi". Bu fondni yanada boyitish, ularni asrab-avaylash, to'g'ri yo'l ko'rsatish esa biz, yoshlar yetakchilarining asosiy vazifalarimizdan biridir.

“

YOSHLARGA OID YANGILIKLAR, IMTIYOZLAR HAQIDA TARG'IBOT O'TKAZIB, BU IMKONIYATLAR HAR BIR XONADONGA KIRIB BORISHI UCHUN HARAKATDAMAN.



"Yoshlar daftari" dan

NOZIMJON O'NGA YAQIN YOSHNI ISHLI QILDI

"Yoshlar ovozi – yoshlar bilan!" loyihasi doirasidagi bu galgi safar Andijon viloyati Marhamat tumanidagi "Sho'rqagir" mahallasiga bo'ldi. Bu yerda tadbirkorligi, mehnati orqasidan oilasi va mahallasiga hissa qo'shib kelayotgan yoshlar talaygina. Shulardan biri – Nozimjon Abdullayev. 18 yoshli qahramonimiz mahallasida o'nga yaqin yoshni ish bilan ta'minlagan. U "Yoshlar daftari" ko'magida shunga erishdi.

– Men ham ishsiz edim. "Bekorchidan xudo bezor", deganlaridek bunga yechim topish maqsadida mahalladagi yoshlar yetakchisi Saidazim Saidahmedovga uchrashdim, – dey-

di Nozimjon Abdullayev. – Kredit olib, o'z tadbirkorligimni yo'lga qo'yish niyatida edim. Murojaatimga asosan menga 33 million so'm kredit ajratib berildi. Mahallam va oilamdagilarning qo'llab-quvvatlashi bilan "shlakoblok" hamda "penoblok" ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydim. Mahallamdagi ishsiz tengdoshlarimni ham ish bilan ta'minlashga harakat qilayapman. Biz ishlab chiqarayotgan mahsulotlardan xalqimiz yaxshi niyat bilan uy qurmoqda. Odamlarning yaxshi kuniga xizmat qilish katta baxt. Bir kunda 800 ta shlakoblok, 500 ta penoblok ishlab chiqaramiz. Kundalik chiqim va ish haqidam tashqari, kunlik sof daromadimiz 2 millionga yaqin bo'ladi. Ish boshlaganimga 6 oycha bo'ldi. Ozmi-ko'pmi xaridorlar to'pladik. Mahalladoshlar arzon va sifatli qurilish mollarini olayotganidan mamnun. Kelgusida faoliyatimizni kengaytirib, ishlab chiqarishni ikki baravarga oshirmoqchiman. Ishonch bilan ayta olamanki, bu yurtda mehnat qilgan inson rohatini ko'radi!

Sho'rqagirlik yoshlar shunday intiluvchan. Ularning ko'zidagi ishonch va qalbidagi olovni ko'rib, "Mehnatkash xalqning bolasi ham mehnatkash bo'ladi-da", deging keladi, beixtiyor.

Biz safarimizni yakunlamadik. Endigi manzilimiz siz tomon bo'lsa, ne ajab!

Diinoza ABDUHAMIDOVA,
Yoshlar ovozi muxbiri



Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

"QADRDONLAR, VOZ KECHING SHU O'YINDAN!"

Pul tikish orqali o'ynaladigan o'yinlarni bukmekrlar boshqaradi. Eng mashhur bukmekrlar kompaniyasi – "1 x bet" (1xbet). Bu o'yin, asosan, sport o'yinlari orqali pul ishlaydi, odamlarni o'ziga jalb qiladi. Siz pul tikasiz, lekin kutilganidek pul yuta olmaydiz. Bu odatiy hol. "Stavka"lar orqali hech qachon "daromad" qila olmaydiz. Bukmekrlar bu ishni o'zlarining daromad manbayiga aylantirib olgan. Siz "pul ishlash" uchun qilgan harakat ularning doimiy "mashg'ulot". Agarda siz katta pul yutib olgan taqdiringizda ham hisob raqamingizga bukmekrlar cheklov o'rnatadi yoki akkauntingiz bloklanishi mumkin.

Hozirgi kunda "1xbet" o'z domiga ko'plab odamlarni tortmoqda. Har yili millionlab odamlar bor-budidan ayrilmoqda. Yiliga yuzlab odamlar totalizator sabab o'z joniga qasd qilmoqda. Afsuski, bunday holat yurtimizda ham qayd etilmoqda.

"1xbet" o'ynab, bukmekrlar qurboniga aylangan va hozirgi kunda to'g'ri yo'lga qaytgan yoshlardan birini suhbatga chorladik. Otabek Rustamov boshidan o'tganlarini va afsusdan ekanini aytdi. Bundan ikki yil oldin do'stlarining shu o'yinni o'ynab yurishi, yutib olgan pullarini maqtanishlarini ko'rib, Otabekda ham "1xbet"ga "mehr" uyg'onadi. Uning fikricha, ko'p pul yutib olsa, o'zining barcha istaklariga erishishi mumkin edi.

– Birinchi boshlaganimda 10 ming so'm tashladim va futbolga kupon qildim. – **deydi Otabek Rustamov.** – Shunday qilib, har kuni, har on shu o'yin eng muhim ishimga aylandi. Bora-bora tikadigan pullarim miqdorida ko'payib, hisobimni mingda emas, millionda to'ldirishni boshladim. Achinarlisi, o'yin men uchun yaqinlarimdan ham ustun bo'lib ketdi. Avvaliga yutqazgan summam 15 millionga yetdi...

Shuncha pulni "qo'shqo'llab" berib yuborsa ham aqli kirmagan Otabek endi ko'proq pul tikib, barcha pullarini qaytarib olishni o'yarladi. Lekin buning uchun pul topish kerak edi. Tanishlaridan pul so'radi. Buni qarangi, olgan pullarini ham yutqazdi. Shu tariqa Otabekning qarzlari kundan kunga ko'paydi. Ularni qaytarish uchun yanada kattaroq miqdorda pul topib, "Ruletka" o'ynamoqchi bo'ldi. Pul so'raydigan odam qolmagach, qahramonimiz kredit markazidan pasportga texnika olib, uni yarim narxiga sotib yubordi. Qarz ustiga qarz bo'lib yutqazgan summa 70 millionga chiqdi. Olgan qarz va krediti ta'lanmaganidan keyin pullarini so'rab keladiganlar ko'paydi.

Otabek mahalladagi obro'li oilaning farzandi edi, bu ishi tufayli oilasi sha'niga dog' tushirdi, ota-onasining yuzini yerga qarattirdi. Ko'chada hamma shu oila haqida gapiradigan bo'ldi.

– Odamlar men haqimda gapira boshlagach, o'z jonimga qasd qilish fikri paydo bo'ldi. Lekin bu fikr katta xato ekanini bilardim. O'zimni qo'lga oldim va bir muddat ustalarga qo'shillib ustachilik qilib yurdim. Hamma qarzarlarimni otam to'lab berdi. Otamning umrlari uzoq bo'lsin, – **deydi Otabek.**

Har qanday holatda ham inson harakatdan to'xtab qolmasligi kerak. Qahramonimiz ham to'g'ri yo'lga qayta oldi. Yoshlikdan hazilga oshnoligi Otabekni "Quvnoqlar va zukkolar" olamiga olib kirdi. "Besh tashabbus olimpiadasi" esa Otabekning boshiga baxt qushi bo'lib qo'ndi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Otabek mahallasida "QvZ" jamoasini shakllantirdi va "Besh tashabbus olimpiadasi"da ishtirok etdi.

Maqsad aniq va tanlangan yo'l to'g'ri bo'lsa, manzilga yetish oson. Qahramonimiz ham "Besh tashabbus olimpiadasi"ning "Quvnoqlar va zukkolar" o'yinida finalga yetib bordi. Finalda

"Swipe qil va pul ishla", "Siz pul yutib oldingiz", kabi so'zlar tanishmi? Albatta! Bu kabi xabarlarini ijtimoiy tarmoqlarda, video-reklamalar hamda internet bannerlarida juda ko'p ko'ramiz. Bularning barchasi firibgarlarning bukmekrlar va totalizatorga asoslangan o'yinidir.



biroz omad va tajribasizlik sabab g'alaba nasib etmadi. Biroq finalga yig'ilgan mehmonlar ko'nglidan joy ola bildi. U o'zidagi yomonlik ustidan g'alaba qildi. Finaldagi barchaning ko'ziga yosh olishiga sabab bo'lgan voqea haqida esa Otabekning o'zi gapirib berdi:

– "Xalqlar do'stligi" saroyiga keldik. 4200 nafar odam oldida ota-onamdan uzr so'radim. Biz finalda yutqazdik, lekin ota-onamning xursandchiligini ko'rib, bir narsa ayta olaman, men yutqazmadim. 2 yil deganda ota-onam mendan birinchi marta faxrlanishdi, xursandligimdan ko'zimda yosh tinmadi, to'xtata olmadim. Jamoadoshlarim ham, muxlislar ham buni yuragi bilan his qilishdi.

Bunday holatni so'z bilan ta'riflab bo'lmaydi. Har kim ham jur'at ila olomon oldida o'z so'zlarini ayta olmaydi. Qahramonimizda iroda kuchliligi va to'g'ri fikrlay olish qobiliyati sabab o'z yo'lini topdi. Otabek ayni paytda Qo'qon davlat pedagogika institutida tahsil olmoqda va yoshlarga yetakchilik qilmoqda. Chizgilarimizni qahramonimizning saboqlari bilan tugatamiz:

– Men endi 25 yoshni qarshiladim. Lekin boshimdan ko'p savdolar o'tdi. Boshidan o'tkazgan tabib, deyişhadi. Mening xulosam shu: qarddonlar, voz keching shu o'yindan. Halovatingizni olib qo'yadi, baxt degan tuyg'uni his qilmay qo'yasiz, qarzga botib, bor-budingizdan ayrilasiz. Million dollar yutgan taqdiringizda ham harom hisoblanadi. Uni kimga, nimaga ishlatasiz?! Shu gaplar "1xbet" o'ynab turganlarga ta'sir qilib, hech bo'lmaganda 10 kishi shu yo'ldan qaytsa, men maqsadimga erishgan bo'lardim.

Business-ombudsman tomonidan tadbirkorlik sohasida davlat nazorati bilan bog'liq katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va qayta ishlash imkonini beruvchi "Yagona davlat nazorati" axborot tizimi ishga tushirildi. Axborot tizimi orqali tekshiruvlarni ro'yxatga olish kitobi, yangi elektron formati yaratildi.

IELTSDAN

7
BALL
OLGAN11
YOSHLI
QIZ

Prezident maktabiga kirolmagan buxorolik 11 yoshli o'quvchi Sabrina Nurillayeva til bilish darajasini belgilovchi xalqaro IELTS imtihonidan 7 ballni qo'lga kiritib, muallimlariga ingliz tilini o'rgatmoqda. Oyina.uz muxbiri uning oyisi Surayyo Ro'ziyeva bilan bog'lanib, farzandining o'qishga bo'lgan favqulodda qiziqishi, ota-ona va atrofdagilarning bunga munosabati haqida suhbatlashdi.

BESH YILDA TO'RTTA MAKTABDA O'QIDI

Uch farzandim bor, turmush o'rtog'im ichki ishlar xodimi, o'zim tarix fani o'qituvchisiman. Sabrina to'ng'ichimiz, hozir 11 yoshda. Asli qorako'llikmiz, erimning xizmat vazifasi sabab yashash manzillarimizni tez-tez o'zgartirib turamiz. Shu bois qizimiz 5-sinfgacha to'rtta maktabda o'qigan.

Sabrina go'dakligidanoq boshqacha edi. Tili juda erta chiqqan. Hali bir yoshga to'lmasidan gapirishni, so'zlarni bir-biriga ulab jumla tuzishni bilardi. O'yinchoq o'ynashga qiziqmagan, unga ruchka, daftar bo'lsa bo'lgani edi. Alohida shug'ullanishni boshlab, kitoblarni o'qib berar, she'rlar yodlatardim. Har kuni bog'chaga ketguncha bitta, qaytishda bitta she'ri yodlab olardi.

Farzandlarimiz bor e'tiborini o'qishga qaratishi uchun uyda chalg'ituvchi narsalardan voz kechgandik, oddiy telefon ishlatardik, televizorimiz yo'q edi (yaqinda sotib oldik). Sabrina to'rt yoshida "Alifbe" va "Bukvar"ni tugatdi, ham krill ham, latin alifbosida yozish va o'qishni o'rgandi.

MAKTABGA
BORAMAN DEB
XARXASHA QILA
BOSHLADI

Qizim 1-sinfning darsiga bir-ikki marta kirib ko'rsin, deb rahbariyatdan iltimos qildim. Erkin tinglovchi sifatida qatnashishiga ruxsat berishdi. Nari borsa, bir-ikki oy qatnab qiziqishi kamayadimi, deb o'ylagandik, yil bo'yi darslarni qoldirmadi, bir kun ham. Besh yoshida 1-sinf dasturini to'liq tugatdi, ammo o'qidi degan hujjati yo'q, ismi jumallarga qayd etilmagan edi.

Kelasi yil maktabga rasman beramiz dedik. 1-sinfga qaytadan bormayman, deb yig'ladi. O'quv dasturi boshqacha, deya ilojisiz rus maktabiga berdik. 2-sinfda o'zbekcha ta'limga qaytdi. Imtihon olishdi, barchasidan a'lo bahoga topshirdi.

HAMMA UNING
PREZIDENT MAKTABIGA
KIRISHIGA
ISHONGANDI, BIROQ...

Sabrina Nukusda Prezident maktabi ochilganini eshitganida 1-sinfda o'qirdi. Yillar davomida imtihonga tayyorlandi. Qizimni qaysi fanga yo'naltirsangiz, o'zlashtirib keta oladi. O'zim pedagogman-ku, bilaman, bolamda shunday qobiliyat bor. Matematika va ingliz tilidan qo'shimcha darsga bora boshladi. O'qituvchilari uning bilimiga shubha qilmasdi, barcha uning Prezident maktabiga kirishiga ishonardi...

Kirish imtihonining birinchi bosqichidan 90 foizlik yaxshi natija bilan o'tdi. Ikkinchi bosqichda ingliz tili, tanqidiy-mantiqiy fikrlashdan test topshirdi. Hammasi yaxshi bo'ldi, deya mamnun kayfiyatda chiqqandi. Afsuski, natijalarga ko'ra 25-o'rinda edi. Undan yuqorida turganlar orasida qizim bilan bir xil ball to'plaganlar ham bor. Nizomga ko'ra, natijalar teng kelib qolsa, tanqidiy-mantiqiy fikrlashdan ko'proq yechgan nomzod tanlanarkan. Sabrina ingliz tili bo'yicha 480 o'quvchi orasida eng yuqori ball to'plagan (35 ta o'g'ri). Xullas, Prezident maktabiga qabul qilinmadi. Hammasi shundan keyin boshlandi...

TUSHKUNLIK
ORTIDAN HATTO
REANIMATSIYAGA
TUSHIB QOLDI

Qizim natijaga ishonmadi, tinimsiz yig'ladi, hatto ovqat yemay qo'ydi. Eslasam, o'sha kunlar biz uchun juda og'ir o'tdi. Tushkunlik, siqilish... Ahvol shu darajaga yetdiki, bolam hatto reanimatsiyaga tushib qoldi. Buvisi, bobosi, dadasi, men - hammamiz qo'riq ketdik, tepasidan jilmadik. O'shanda onalik qanchalar mashaqqatligini yana bir bor anglaganman. Farzandim bu ahvolda bo'lsa, senga hech narsa tatimas ekan.

Biz qanchalik tushuntirishga harakat qilmaydik, Sabrina tushunishni istamasdi. "Bu menga nisbatan nohaqlik. Nega men bilan natijasi bir xil bo'lganlar o'qishga kirdi-yu, faqat men yiqildim. Nega unda menga pastroq ball qo'yishmadi?" derdi tinimsiz, bolalarcha alam bilan.

KIMGADIR NIMANIDIR ISBOTLASH UCHUN
O'QIDI

Shundan so'ng ingliz tili o'qituvchisi Malohat Akromovanning maslahati bilan IELTSga tayyorlanishni boshladi. U bilan muallimining qizi Hilola Mustafoyeva shug'ullandi. Agar qizim xalqaro daraja olsa, o'ziga bo'lgan ishonchi yana qaytadi, tushkunlikdan chiqib ketadi, degan fikrda edik.

Kecha-yu kunduz bosh ko'tarmay o'qidi, kimgadir nimanidir isbotlash uchun. Ixtisoslashgan maktabdagi barcha fanlardan bahosi besh, birorta to'rt yo'q. Darsdan so'ng matematikadan qo'shimcha mashg'ulotga qatnashishi kerak. Kechga esa IELTSga tayyorlanishga ketardi. Sutkasiga nari borsa to'rt soat uxlaydi. Bunday tig'iz tartibda o'qishi bizni xavotirga solgan. Dadasi ham tanbeh berardi, biroq yana kasal bo'lib qolsa-chi, deya qo'riqib qattiq gapirmasdik.

Maktabimiz direktori Sabrinadan tashvishlanib, bir tomondan rahmi kelib, ozroq dam ol, darslardan ruxsat beramiz, dedi. Bolam esa istamadi. U mag'lubiyatdan qo'rqadigan bo'lib qolgandi, maktabdagi oddiy testlardan ham pastroq ball olishdan cho'chirdi. Avval unaqa emasdi.

Bu orada xususiy xalqaro tanlovlarga qatnashdi. ELPC (English Language Proficiency Competition), Amerika xalqaro matematika olimpiadasi va "Writing World Cup" - ingliz tili insholar tanlovida oltin medallar oldi.

Badiiy kitoblarni ham ko'p o'qiydi. Shu bois fikrini chiroyli va tushunarli ifoda qiladi, dunyoqarashi shakllangan, inshoni yaxshi yozadi. Yana bir nechta musobaqalarda qatnashmoqchi bo'ldi, ammo yoshi 12 ga to'lmagani bois ruxsat tegmadi. Tezroq ulg'ayishga shoshilyapti.

Inobat AHATOVA,
Oyina.uz muxbiri

“

TILI JUDA ERTA
CHIQQAN. HALI
BIR YOSHGA
TO'LMASIDAN
GAPIRISHNI,
SO'ZLARNI BIR-
BIRIGA ULAB JUMLA
TUZISHNI BILARDI.



“NEGA MEN BILAN
NATIJASI BIR XIL
BO'LGANLAR O'QISHGA
KIRDI-YU, FAQAT MEN
YIQILDIM?!”

QANDAYDIR DARAJALARI EMAS, SOG'LIG'I KERAK

IELTSga imtihon uchun ro'yxatdan o'tish payti bildikki, talabgor kamida 11 yoshga to'lgan bo'lishi kerak ekan. Bolam kun sanab 5-iyulni kutdi. Er-tasigayoq registratsiya qildi. U sinovlarga qanchalik intiqqan bo'lsa, men hammasi yaxshi tugashini, avvalgi holiga qaytib qolmasligini Xudodan tinimsiz so'rardim. Onaga farzandining qandaydir darajalari emas, eng avvalo, sog'lig'i kerak.

Nihoyat, imtihon kuni keldi. Inshoda biroz vaqt yetmay qoldi, shuning hisobiga baho pastroq bo'lishi mumkin, deb ichini urdi. IELTS bo'yicha yakuniy natijasi 7 ball chiqdi, bu uning yoshiga nisbatan havas qilarli natija.

Dadasi "Hechqursa uch kungina darslaringni to'xtat, biroz dam ol", dedi. Charchamadim, shart emas, deya bungayam ko'nmadi. Pulimiz yo'q, deb bahona qilib ko'rdik. Rosa yig'ladi, IELTS sertifikat olganim uchun 2 million so'm qaytarishadi, o'shani olib kelib sizlarga beraman, deb.

Aslida dadasi va bobo-buvisinging xavotiri bejiz emas. Sabrininging ilm olishga mukkasidan ketgan amakisi muttasil o'qishdan miyasi charchab, qattiq kasal bo'lib qolgan, doktorlar kitob o'qishni ham man etishgan. Bu holat Sabrinada ham takrorlanmasin deya xavotirdamiz. Chalg'itish, to'xtatishga urinish esa befoyda.

Qizim IELTS bo'yicha natijasini bundan ham yaxshilash harakatida, sentabrda yana imtihon topshiradi.

O'QITUVCHILARIGA INGLIZ TILINI O'RGATISHNI BOSHLADI

O'zim Prezident maktabida ham pedagog-tarbiyachi bo'lib ishlayman. Qizim IELTSdan imtihon topshirishi, C1 daraja olmoqchiligi aynganimda hamkasblarim ishonmagan. Hali dunyoqarashi yetmaydi, bekor qilibsizlar, pastroq ball to'plasa, battar tushkunlikka tushadi, bunday natijaga maktab o'qituvchilari zo'rg'a erishyapti-ku, deyishgan. Shundan so'ng ko'ngilsiz vaziyatning oldini olaylik, deb psixologga ko'rsatdik. Qizim shifokor qabulidan yig'lab chiqdi, menga ishonmayapsizlarmi, qattiq tayyorlanypman-ku, deya. Xudoga shukr, o'zi istagan C1 darajani oldi. Shu oydan hatto to'rt o'qituvchiga ingliz tilini o'rgata boshladi.

Aynganimdek, Sabrina nimadir isbotlash payida qattiq o'qidi. Hozir bu daraja Prezident maktabida ta'lim oladigan tengdoshlarida ham yo'q. Bir mag'lubiyat kattaroq g'alabaga yetaklaganmikin, deb o'ylab qolaman. Aytng, meni yana imtihon qilishsin, deya dadasidan o'tinaveradi. Bolaga xos alamzadalikka yo'yamiz, unga tengdoshlaridan kam bo'lmagan sharoit yaratishga tirishamiz.

Hozir biologiyani ingliz tilida o'qib o'zlashtiryapti. Prezident maktabida o'tiladigan Kembrij kitoblaridan olib berganmiz. Doim aytadi, bir marta bo'lsa-da, shu maktab darslarida qatnashsam, menga ularning shahodatnomasi ham, imtiyozlari ham kerak emas, shunchaki sinfxonasida o'tirsam, qolganiga o'zim erishaman, deydi. Xorijlik o'qituvchilarning qanday saboq berishiga qiziqadi.

Endi A-Level sertifikatini qo'lga kiritish niyatida. Bilishimcha, bu dunyoning TOP o'ntalik universitetlarida grant asosida o'qish imkoniyatini beradi. Sabrininging maqsadi - Kembrijda o'qish va kuchli shifokor bo'lish.



QIZIM IELTS IMTIHONIGA QATNASHISHI UCHUN TILLALARIMNI SOTGANMAN

Ukallari ham Sabrininging ortidan ketyapti. Olti yoshli o'g'lim o'quv markaziga qatnaydi, o'zbek, rus, ingliz tillarida o'qish-yozishni boshlang'ich darajada biladi, shaxmatda ham yaxshi. Kenjatoyimiz hali erka, juda kichkina.

Qo'shimcha darslar xarajati oilaviy byudjetga og'irlik qilmaydimi, deb ko'pchilik so'raydi. To'g'ri, buning uchun chakana pul ketmaydi. Mayli, boshqalardan bitta kam ko'ylak kiyarmiz, go'shtsiz-roq ovqat yermiz, hashamatda yashamasmiz, lekin bolalarimiz kelajagi uchun harakatdamiz. Dadasi ikkimiz ham dabdabani yoqtirmaymiz, oddiylik ma'qul.

Qiyinchiliklar bo'lmagan, deya olmayman. Qizim IELTS imtihoniga borishi kerak, otasi hali oylik olmagan edi, ko'zimni chirt yumib, tilla taqinchoqlarimni sotdim. Farzanding quvonchi, ilm olishi oldida zeb-ziynat nima bo'libdi?! O'zimizdan tejaymiz, lekin bolalarimizning o'qishi uchun borimizni beramiz.

O'ZBEKISTON 158 TA MEDAL BILAN IKKINCHI O'RINNI EGALLADI



18-avgust kuni Turkiyaning Ko'nya shahrida o'tkazilgan V Islom birdamligi o'yinlari o'z nihoyasiga yetdi. Unga ko'ra, Turkiya terma jamoasi 145 ta oltin, 107 ta kumush va 89 ta bronza - jami 341 ta medal bilan birinchi, O'zbekiston terma jamoasi 51 ta oltin, 42 ta kumush va 65 ta bronza - jami 158 ta medal bilan ikkinchi, Eron esa 39 ta oltin, 44 ta kumush va 50 ta bronza - 133 ta medal bilan uchinchi o'rinni egalladi.

Prezidentimizning V Islom birdamligi o'yinlarida g'olib va sovrindor bo'lgan sportchilar hamda ularning trenerlarini bir martalik pul mukofotlari bilan rag'batlantirishga oid qarori bilan:

V Islom birdamligi o'yinlarida g'olib va sovrindor bo'lgan sportchilar:



oltin medal uchun
5 MING AQSH DOLLARI



kumush medal uchun
3 MING AQSH DOLLARI



bronza medal uchun
2 MING AQSH DOLLARI

Sportchilarni tayyorlagan trenerlar:

oltin medal uchun
2,5 MING AQSH DOLLARI

kumush medal uchun
1,5 MING AQSH DOLLARI

bronza medal uchun
1 MING AQSH DOLLARI

miqdorida har bir medal uchun mukofotlanadigan bo'ldi.

Kecha Toshkent xalqaro aeroportida terma jamoamiz a'zolari tantanali kutib olindi.



SIZ-U BIZ

HAQIMIZDA QIZIQARLI MA'LUMOTLAR

Ziyoda
RAHIMBOYEVA
tayyorladi

"Yoshlar ovozi" da hammasi siz-u biz – yoshlar haqida! Hatto eng qiziqarli faktlar, kimdir bilgan, kimdir bilmagan foydali ma'lumot, tavsiyalar ham kelajak egalarini qo'llab-quvvatlab turish uchun. Buning yana bir isboti sifatida sahifadagi qiziqarli faktlarni e'tiboringizga havola qilamiz. Taklif va mulohazalaringizni yoshlar-ovozi@mail.ru pochta manziliiga yo'llashingiz yoki @YO_tahririyati_botga yozishingiz mumkin.

• Dunyo bo'ylab eng ko'p qahva ichuvchilar – talabalar ekan! Diqqatni jamlash, uyquni qochirish va kayfiyatni yaxshilashga yordam beruvchi bu xushbo'y ichimlikni talaba-yoshlar sevadi. Shu jihatlari bilan ham ularning ko'p miqdorda kofein iste'mol qilishi bir qancha ilmiy maqola va tadqiqotlar mavzusi bo'lgan. Uy vazifalarini, yuklamalarni bajarish uchun uxlab qolmaslik kerak. Bunda esa qahva eng yaxshi ko'makchi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, talabalarning 92 foizi kuniga 200 milligrammdan 400 milligramm oralig'ida qahva iste'mol qilishar ekan.



• Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan yoshlar o'qishni davlat OTMLarida davom ettirganda ularga stipendiya 50 foizga oshirilgan holda to'lanadi. Qonunchilikka ko'ra, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar davlat bog'chalari va maktablarga navbatga qo'yilmasdan joylashtiriladi. Ularga texnikum, kollej, akademik litsey yoki OTMda o'qish jarayonida har o'quv yilida 1 marotaba o'quv, ilmiy va badiiy adabiyotlar (kitoblar) xarid qilish uchun BHMning 5 baravari (1 million 500 ming so'm) miqdorida subsidiya beriladi.



• Statistika qo'mitasining ma'lum qilishicha, O'zbekistonda yo'l transport hodisalari oqibatida 14 yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'limi darajasi Yevropaga qaraganda to'rt baravar yuqori. Chindan ham so'nggi vaqtlarda har to'rt xabarining ikkitasi yo'l transport hodisalari bilan bog'liq. Shu o'rinda yo'l harakati qoidalarini unutmashlikni va doim hushyor bo'lishingizni so'rab qolar edik.



• 1913-yil 20-avgustdan Behbudiy "Oyna" jurnalini nashr eta boshladi. Haftasiga bir marta bosiladigan jurnalda, asosan, jamiyatimizdagi muammolar, yoshlarni ilm olishga undash ruhidagi o'zbek tilidagi maqolalar bosilgan, shuningdek, fors tilidagi she'rlar, rus tilidagi e'lonlar ham chop etilgan. Jurnal tarixi va muallifi hayotini jiddiy tadqiq etgan olim Begali Qosimov "Jurnal dastlab haftasiga bir marta, 1914-yildan boshlab esa, 15 kunda bir marta chiqqan. Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston va Turkiya kabi davlatlarga ham tarqatilar edi" deb yozadi.

• "FIDE" nashrining xabar berishicha, Jahon shaxmat olimpiadasida faqat 5 nafar grossmeyster 2800+ reyting qayd etgan. Ulardan ikki nafari O'zbekiston vakili – Nodirbek Abdusattorov (2803) va Jahongir Vohidov (2813) Hindistondagi musobaqaning eng yaxshi o'yinchilari qatoridan joy olishgan. "Oltin avlod" deb e'tirof etilgan chempion shaxmatchi yoshlarimizga 600 million so'm va har biriga "Equinox" rusumli avtomobil topshirilganidan xabaringiz bo'lsa kerak.



• Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasiga ko'ra, maktablar atrofida shakarli, gazlangan va energetik ichimliklar, tez tayyorlanadigan taomlar savdosi cheklanishi kutilmoqda. Mazkur tartibni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasi 2022-yil 1-sentabrga qadar ishlab chiqiladi. Chindan ham, o'quvchi yoshlar orasida ovqatdan zaharlalanish va kasallanish holatlari so'nggi ikki yil mobaynida bir necha barobar o'sgan edi.

• Bugun 20-avgust butunjahon chivinlar kuni. Bu kun 1930-yildan boshlab nishonlanadi. Shu o'rinda aytib o'tmoqchimiz, sayyoramizdagi eng xavfli jonzo't bo'ri, fil yoki timsoh emas, chivindir! G'alati eshitisli mumkin, ammo chivinlar yoshliksevar mavjudotdir. Ular asosan 15-30 yoshlar atrofida odam qoni bilan ozig'lanishni xush ko'radi. Chivinlar tarqatgan infeksiyalar (vabo, bezgak, sariq isitma, meningit, denge gemorragik isitmasi, "fil kasali") sababli bir yilda 70 million odam kasallanadi, shundan 2 millionga yaqini vafot etadi.



• Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining muddatli harbiy xizmatni o'tash tartibini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, har bir fuqaro 18 yoshdan 27 yoshgacha bo'lgan muddatda bir yillik harbiy xizmatga borish huquqiga ega. O'zbekiston fuqarosining chet davlatlarning harbiy xizmatiga, xavfsizlik, politsiya, harbiy adliya yoki shunga o'xshash boshqa organlariga xizmatga yollanishi 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi mumkin. Shuningdek, shaxs chet davlatning harbiy xizmatiga, xavfsizlik organlariga, huquqni muhofaza qiluvchi organlariga, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga xizmatga kirganligi O'zbekiston fuqaroligini yo'qotishga asos bo'ladi.

• Husnbuzarlar – yer yuzida 90 foiz yoshlarning muammolari aynan shu bilan bog'liq. Bunda ko'pchilik o'z bilganicha yoki yaqin do'stlarining tavsiyasi bilan qarshi choralar qo'llamoqchi bo'ladi. Ammo gap yuzingiz haqida ketar ekan, shoshilmaganingiz ma'qul. Shunchaki kosmetolog ko'rigidan o'tish sizdagi muammoning asl ildizi qayerda ekanini ochib berishi mumkin!



YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza ABDULLAYEV

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi


Navbatchi muharrir:
Muhammadshukur MUHAMMADJONOV

Musahhihlar:
Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teridi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (7) 233-22-18, (7) 238-79-95.

"Share" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bo'smaxonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma taboa. Korxonalar manzili: Buyuk Turoh ko'chasi, 41. Indekslar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-865, Adadi – 10627. Boshiga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6